



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 19.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Shavkatbekov Odiljon Sharobiddin o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Uzbekistan

shavkatbekovodiljon52@gmail.com

TORONDOSHLAR OILASINING TURLARI, TARQALISHI VA AHAMIYATINI O'RGANISH

Abstract: This scientific work studies the species, distribution and importance of the Urticaceae family. Urticaceae is a plant family that includes more than 50 species of plants worldwide. These plants are mainly distributed in tropical and subtropical regions, and some species are also found in Eurasia and North America. Plants of the Urticaceae family are often used in medicine, food and industry, and are also of great ecological importance, as they play an important role in soil nutrition and ensuring mutual relations in the ecosystem. This work discusses the classification of species of the Urticaceae family, their geographical distribution, economic and ecological importance, as well as the scientific and positive value of their study.

Keywords: Tropical, desert, hill, grass, semi-shrub, partly shrub, lianas and trees, sorrel, juzgun, toron, rowan, water pepper, bird's tongue, medicine, tannins, camel's ear, whipwort.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda Torondoshlar oilasining turlari, tarqalishi va ahamiyati o'rganiladi. Torondoshlar (Urticaceae) o'simliklar oilasi bo'lib, dunyo bo'ylab 50 turdan ortiq o'simlikni o'z ichiga

oladi. Ushbu o'simliklar asosan tropik va subtropik hududlarda tarqalgan bo'lib, ayrim turlari yevrosiyo va Shimoliy Amerika hududlarida ham uchraydi. Torondoshlar oilasining o'simliklari ko'pincha dori-darmon, oziq-ovqat va sanoat sohalarida ishlatiladi, shuningdek, ularning ekologik ahamiyati ham katta, chunki ular tuproqni oziqlantirish va ekosistemada o'zaro munosabatlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ishda Torondoshlar oilasining turlari tasnifi, ularning geografik tarqalishi, iqtisodiy va ekologik ahamiyati, shuningdek, ularni tadqiq etishning ilmiy-ijobiy ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tropik, cho'l, adir, o't, yarimbuta, qisman buta, liana va daraxtlar, otquloq, juzg'un, toron, rovoch, suvqalampir, qush tili, dori vositasi, tannidlar, tuyasingren, qamchingul.

Аннотация: В данной научной работе изучены виды, распространение и значение семейства Торондош. Urticaceae — семейство растений, включающее более 50 видов растений по всему миру. Эти растения в основном распространены в тропических и субтропических регионах, а некоторые виды встречаются также в Евразии и Северной Америке. Растения семейства очитковых часто используются в медицине, пищевой промышленности и промышленности, а также имеют большое экологическое значение, так как играют важную роль в питании почвы и поддержании взаимодействий в экосистеме. В данной работе обсуждается классификация видов семейства Торондаш, их географическое распространение, экономическое и экологическое значение, а также научная и положительная ценность их исследований.

Ключевые слова: Тропик, пустыня, холм, трава, полукустарник, полукустарник, лианы и деревья, щавель, джужунг, тарон, можжевельник, водяной перец, птичий язык, лекарство, таниды, туясингрэн, плеть.

Language: Uzbek

Citation: Shavkatbekov , O. (2024). STUDYING THE TYPES, DISTRIBUTION AND SIGNIFICANCE OF THE PARENT FAMILY. Universal International Scientific Journal, 1(9), 174–176. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1385>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14534392>

Torondoshlar (Polygonaceae) oilasi vakillarining hayotiy shakllari, asosan, o'tsimon, qisman butasimon, yarimbutalardir, ba'zan tropik mamlakatlarda liana va daraxtlardan iborat. Barglari oddiy, yon bargchalari birikib o'sib, naycha hosil qiladi. Gullari aktinomorf, gulqo'rg'oni oddiy, 3-6

gulqo'rg'on barglari mavjud. Changchilari 5-9 ta, urug'chisi 2-3 ta meva bargchasining birikib o'sishidan hosil hosil bo'lgan. Mevasi uch qirrali yong'oqcha. Oilaga 35 ga yaqin turkum, 1000 ta tur kiradi. O'zbekistonda 7 turkumga oid 120 turi o'sadi.

Hozirgi vaqtda Torondoshlar oilasi 3 ta kichik oilachaga bo'linadi: Eriogondoshchalar (Eriogonoideae), Torondoshchalar (Polygonoideae), Kokkolobdoshchalar (Coccoloboideae). O'zbekistonda faqat torondoshchalar oilasiga mansub turlar tarqalgan.

Torondoshlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri deyarli barchasining yer ustki qismlarida otquloq kislotasining kalsiyli tuzlari, yer ostki qismlarida esa, oshlovchi moddalar (tannin)ning bo'lishidir. Ulardan madaniy o'simlik sifatida Grechixa, sabzavot o'simligi sifatida Nordon otquloq yoki Shovul, Qoradengiz rovochi kabi turlari ekiladi.

Torondoshlarning ayrim turlari, ba'zi otquloqlar, qushtili (qizil tasma) begona o'tlar hisoblanadi. Torondoshlar qazilma holda uchlamchi davr qoldiqlaridan topilgan. Barglari asosining pardasimon nay hosil qilishi, changchilarining gulqo'rg'on barglari qarshisida joylashganligi bilan tutdoshlar (Moraceae) oilasiga o'xshaydi.

Respublikamizning Janubiy hududlarida va Farg'ona vodiysining cho'llarida mazkur oila vakillaridan: qora juzg'un, qizil juzg'un, to'rsimon juzg'un, farg'ona juzg'uni ko'proq tarqalgan. Daraxtsimon juzg'un yoki oq qandim Qoraqumda keng tarqalgan bo'lib, Amudaryo havzasigacha yetib boradi. Tabiatda 3 metr balandlikkacha o'suvchi butadir. Qumlarni eng yaxshi to'xtatuvchi o'simliklardan bo'lgani uchun, har yili o'rmon xo'jaliklari tomonidan katta maydonlarda ekiladi.

Otquloq o'simligining galen preparatlari kolitlarda, enterokolitkarda, vabo, silda beriladi hamda og'izni chayish uchun stomatit, gingvinit, anginada tavsiya etiladi. Xalq tabobatida qushtoron o'simligidan tayyorlangan damla siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Shuningdek, mazkur oilaning ko'plab vakillarida dorivorlik xususiyatlari aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sahobiddinov S.S O'simliklar sistematikasi -Toshkent
2. A.To'xtayev O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi
3. O'. Pratorov K.Jumayev -Yuksak o'simliklar sistematikasi
4. <https://docx.uz/document/torondoshlar-oilasi-4cb7c999?lang=uz>